

---

## Yuzlaringdan baxt porlasin, bolajon!

Yoz fasli bolalar uchun g'oyat zavqli va quvnoq tarzda boshlanadi. Bugun – yoz faslining ilk kunida ko'cha va xiyobonlar, istirohat bog'lari baxtdan yuzlari porlagan bolajonlar bilan yanada gavjum. Bu kun kelajagimiz davomchilari uchun katta tantana tusini olgan.

Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni mamlakatimizda har yili ko'tarinki kayfiyatda, bolalarga xos samimiy ruhda nishonlanadi. Rishton tumanida ham Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan "Bolalarga bering dunyoni" shiori ostida bayram tadbirlari bo'lib o'tdi. Bayramona bezatilgan sahna jaji bolajonlarning o'yin-kulgulariga to'ldi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tomonidan tayyorlangan ertak qahramonlarining chiqishlari, kontsert dasturlari, baxtli bolalikni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar, quvnoq raqslar nafaqat jaji bolajonlar, balki boshqa ishtirokchilar qalbiga ham olam-olam quvonch bag'ishladi. Darhaqiqat, oilaning quvonchi farzand bilan. Bayramlar ham bolalar bilan totli. Ularning xursandchiligi barchamizning baxtimiz, ularning quvonchi bizning ham quvonchimizdir.

2022-06-01 15:51:04